

**AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI.**

**Turumova Dildora Abdumannonovna**

Jizzax Politexnika Instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasи  
o'qituvchisi

Jizzax Politexnika Instituti talabasi **Rayimqulova Muxlisa Oybek qizi**

**Annotatsiya:** Bu maqolada Jamiyatimiz uchun moliyaviy bozor uchun auditor nimaga kerak? Auditning zarurligi, Auditni kelib chiqishiga bo'lgan sabablar, audit kelib chiqish tarifi, audit biror korxona tekshirishi uchun unga kerak bo'ladigan prinsplar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Audit tushunchasi, audit maqsadi, audit mohiyati, audit vazifalari, audit obyektlari, audit predmeti, auditor tushunchasi, auditor reyestiri, auditor tashkiloti, auditor tashkiloti reyestiri, maqsadi sistemali audit, tavakkalchilikka asoslangan audit, tasdiqlovchi audit, audit prinsplari.

Jamiyatimiz va moliyaviy bozor uchun auditor nimaga kerak? Keleng auditor tushunchasidan oldin audit atamasini qisqacha tahlil qilib olib keyin auditor moliyaviy bozor uchun nimaga kerakligi bilib olamiz. Audit lotinchadan "eshtuvchi" deb tushuncha qilinadi. Demak audit tushunchasi lotincha bo'lib auditning aynan tarjimasi u eshtivchi degan ma'noni bildiradi. Audit kelib chiqishiga rivojlanishiga nima sabab?

Auditni quyidagi shart sharoitlar keltirib chiqargan: axborot yetkazib beruvchilar bilan axborotlardan foydalanuvchilar manfaatlarining mos kelmasligi natijasida ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganda ma'muriyat tomonidan notug'ri ma'lumotlar berilishi. Notug'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi oqibatida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqizorga yuz tutish holatlari. Iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligi tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyojni paydo bo'lishi va albatda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning yetishmasligi mana shu holatlар jamiyatimizda audit tushunchasi paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Endi savol tug'ilishi tabiiy axborotlardan foydalanuvchilar kim? Ular masalan davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak Audit – korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib borish, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazishdir. Ma'lumotlarga ko'ra taxminan eramizdan oldingi 200 yillarda audit kasb sifatida shakllana

boshlagan. Birinchi mustaqil auditorlar XIX asrda, Evropadagi yirik aktsionerlik kompaniyalarida vujudga kelgan. Auditning tarixiy vatani deb Angliya hisoblanadi. 1844 yil kompaniyalar to'g'risida bir qator qonunlar chiqib, ularda aktsioner kompaniyalari bir yilda bir marotaba maxsus mutaxassislarni taklif qilib buxgalteriya schetlarini tekshirib va aktsionerlar oldida hisoboti eshitilishi lozim edi. Audit 1862 yilda Angilyada, 1867 yilda Fransiyada 1937 yilda esa AQSH da majburiy audit tog'risidagi qonun qabul qilingan.

Endi savol tug'iladi audit jamiyatga moliyaviy bozorga nima uchun kerak va muhim. Auditorlik xizmatiga bo'lган ehtiyoj quyidagi omillar sababli vujudga keladi:

Axborot tuzuvchilar (rahbariyat) tomonidan ob'ektiv bo'limgan hisobotlar tuzilishi ehtimoli va uning oqibatida axborot foydalanuvchilar va uni tayyorlovchilar orasida nizo vaziyatlari vujudga kelishi;

Qarorlar qabul qilishning sifatli axborotga bog'liqligi;

Axborotlarni tekshirish uchun maxsus bilimlarning zarurligi;

Foydalanuvchilarga axborotning sifatlilagini baholash uchun ruxsatning mavjud emasligi;

Yuqoridagi va boshqa sabablar mustaqil ekspert, etarli darajadagi tayyorgarlik, kvalifikatsiya tajriba va bunday xizmat ko'rsatishga huquqi bo'lgan xizmatni ijtimoiy taqazo qiladi. Auditning maqsadi tekshirilayotgan biror bir korxona yoki faoliyat olib borayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning yil yakuni bo'yicha moliyaviy hisobotning ishonchliligi bo'yicha xisobot berish moliyaviy bozorga ishonchli axborot berishni ta'minlash hisoblanadi. Auditning asl predmeti biror bir korxona moliyaviy hisobotlarida guruhlashtirilgan va umumlashtirilgan operatsiyalar. Umuman olganda Auditning predmeti xo'jalik yurituvchi subyekt va ularning faoliyatları hisoblanadi.

Auditning predmetini bilib oldik endi Auditning ob'ektlariga to'htaladigan bo'lsak:

Auditning ob'ektlari:

- Mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish bilan bog'liq bo'lgan holatlar;

- Moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi ko'rsatkichlar: bularga xarajatlar, daromadlar, foyda va zararlarni misol qilishimiz mumkin.

- Valyuta operatsiyalar;

- Tashqi iqtisodiy faoliyat shu jumladan xorijiy sarmoyalar;

- Hisob kitob operatsiyalar: bularga misol qilib debeditorlik va kreditorlik qarzlari;

- Qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar;

Auditning moliyaviy bozordagi vazifalarini ko'rib chiqamiz:

Auditning vazifalari:

- Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining tahlili va ishonchliigini tasdiqlash;

- Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini samaradorligini real va haqqoniy baholash;

- Mulkdorlar, aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar, va boshqa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarhuquqlarini himoya qilish;

- Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflarni ishlba chiqish; Auditning vazifalariga quyidagilarni ham kiritish mumkin bular:

-Hisobotlarning umumiy muvofiqligi;

- Hisobotlarning asoslanganligi;

- Hisobotlarning tugatilganligi;

- Hisobotlarning baholanishi;

- Hisobotlarning tasniflanishi;

- Hisobotlarning bo'linishi;

- Hisobotlarning tartibga rioxga qilinishi;

Audit tushunchasini bilib oldik endi Auditorlik atamasini ko'rib chiqamiz.

Auditor — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Auditorlar reyestri — auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarning auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati, bundan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shakllantiriladigan reyestr mustasno; Auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlarini ko'rib chiqamiz:

Tasdiqlovchi audit— bunda asosan hisob registrlari va hujjatlar tekshirildi.

Maqsadli sistemali audit— bu bosqichda muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratildi.

Tavakkalchilikka asoslangan audit-sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi.

Maqsadli sistemali audit shakllanishi bilan auditorlar ichki nazorat orqali ekspertiza o'tkaza boshladilar. Buning oqiba-tida shu narsa isbotlandiki, agar ichki nazorat tizimi samarali tashkil qilingan bo'lsa, xato va kamchiliklarni aniqlash uchun jiddiy tekshirishlar o'tkazishga hojat qolmaydi.

Tavakkalchilikka asoslangan audityoppasiga yoki tanlov yo'li bilan o'tkaziladigan tekshirish bo'lib, u korxona faoliyati sharoitidan kelib chiqadi va asosan tor doiradagi ob'ektlarni tekshirish bilan yakunlanadi. Yana shuni

ham ta'kidlab otish joiz. Auditor bilan Auditorlik tashkiloti umuman boshqa boshqa tushunchalar hisoblanadi. Auditor- yuqorida aytib o'tilganidek auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi. Auditorlik tashkiloti - auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi. auditorlik tashkiloti — auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti;

Auditorlik tashkilotlarining reyestri — auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan ro'yxati; mana Audit rivojlanishi uni paydo bo'lishiga nima zamin bo'lgan, Auditor kim hammasini bilib oldik endi Auditor biror bir korxona tekshirishda qanday prinsplarga ega bo'lishi kerakligini ko'rib chiqamiz. Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar

Auditorlik faoliyati sohasidagi asosiy prinsiplar mustaqillik, xolislik va halollikdan, kasbiy bilimga egalik hamda axborotning maxfiyligidan iboratdir.

Mustaqillik prinsipi- Auditor taxminlarga asoslanib fikr bildirishdan xoli bo'lishi va o'zining obro'sini tushiradigan faktlarga yo'l qo'ymasligi kerak. Auditorlik tashkiloti mustaqilligiga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, auditorlik xizmatlari ko'rsatishni rad etishi kerak.

Xolislik va halollik prinsipi -Auditor jamiyat manfaatlari ustuvorligiga riosa etishi, beg'araz bo'lishi va taxminlarga asoslanishi, manfaatlар то'qnashuvi yoki boshqa shaxslarning bosimlari sababli o'zining kasbga oid fikr-mulohazasida tavakkalchilik qilmasligi, auditorlik tashkilotining obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Chuqr kasbiy bilimga egalik prinsipi - Auditor ushbu Qonun talablariga riosa etishi, yetarli darajada chuqr kasbiy bilimga ega bo'lishi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini auditorlik tashkiloti tarkibida sifatli auditorlik xizmatlari ko'rsatish uchun yetarli bo'lgan darajada saqlab turishi kerak.

Axborotning maxfiyligi prinsipi -Auditorlar va auditorlik tashkiloti xodimlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni o'ziga auditorlik xizmatlari ko'rsatilgan shaxslarning yozma roziligidisiz oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas, bundan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Auditorlik tekshiruvi majburiy yoki ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi. Majburiy auditorlik tekshiruvi- hisobot yili yakuni bo'yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim bular quyidagilar:

- Aktivlarning balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 100 ming baravari miqdoridan ortiq bo'lsa;
- Mahsulotlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravar miqdoridan ortiq bo'lsa;
- Xodimlar o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lsa;

Mana shu holatlarda majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi kerak. Ixtiyoriy auditorlik tekshiruvi esa korxona yoki biror bir faoliyat olib boruvchi tashkilot o'zining moliyaviy yakunlari bo'yicha shubha qilganda auditorlik tashkilotiga murojat qilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Fayziev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziev I.N., Avlokulov A.Z. Audit: Darslik -T.: "Iqtisod-Moliya", 2015y. – 430 b.
2. Tuychiev A., Qo'ziev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 620 b.
3. Kuziev I., Tuychiev A., Xojiev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. "Iqtisod-Moliya", 2019 g. – 421 str."
4. Do'smuratov R.D. Audit asoslari.-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-612 s.
5. Audit. Darslik 1-jild. M.M.Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshq.-T.: NORMA.-2008.-320 b.
6. Audit. Darslik 2-jild. M.M.Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilxomov, K.B.Axmadjonov va boshq.-T.: NORMA.-2008.-320 b.
7. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2000 yil 26 may. 78-ll-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946 son Qarori.